

Uzbekistan
Metama'lumot
Baliq ovlash

0. Asoslar

0.1 Qonuniy muhit

0.1.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi 2002 yil 12 dekabrda tasdiqlangan va 2012 yilda o'rgartirish va qo'shimchalar kiritilgan "Davlat statistikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq mustaqil ravishda o'z faoliyatini yuritadi, ushbu qonun bilan davlat statistikasini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat statistikasi organlarining vakolatlarini belgilaydi hamda yagona statistika axboroti tizimi yuritilishi uchun normativ asos yaratadi.

2017 yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beadigan yangi "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizom"i tasdiqlandi, ushbu nizom Davlat statistika qo'mitasi Milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas'ul va ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, analiz qilish va tarqatish bo'yicha asosiy organ bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistik uslubiyat bilan ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Davlat statistika qo'mitasi, statistika ishlarini olib boruvchi boshqa davlat statistika organlari singari davlat statistika hisobotlarini, ma'muriy hisobotlarni va davlat statistika kuzatuvlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni, shuningdek hisobotlaridagi tushuntirishlarni o'z vakolatlari doirasida boshqa organlardan ta'lab qilib olish huquqiga ega.

2017 yil 12 sentyabrdagi 5054 sonli Prezident topshirig'iga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar XVJning kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-UMTT) doirasiga to'g'ri keladigan va muvofiqlashgan bo'lishi kerak.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlartirish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 9-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari Davlat statistikasi ishlari dasturini bajarishda davlat statistikasi organlariga ko'maklashishi shart bo'lgan boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar bilan statistika ishlarini hamkorlikda bajaradi. Davlat statistikasi organlari o'zlarining vakolat doirasiga kiruvchi ayrim ishlarning boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar tomonidan bajarilishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo'l qo'yadi. Boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq davlat statistika kuzatuvlarini, shuningdek davlat statistikasi vakolatli organi bilan kelishilgan shakllarda idoraviy statistika kuzatuvlarini o'tkazadi. Idoraviy statistika kuzatuvlarining ma'lumotlari davlat statistikasi vakolatli organiga uning so'roviga binoan taqdim etiladi.

Bundan tashqari, statistika kengashi davlat statistikasi vakolatli organi huzuridagi davlat statistikasining rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi muammolari bo'yicha kollegial maslahat organi hisoblanadi. Statistika kengashi davlat statistikasining ayrim masalalarini ko'rib chiqish uchun ekspert komissiyalari tayinlashi mumkin. Statistika kengashi va ekspert komissiyalarining yig'ilishlariga ekspertlar taklif etilishi, yig'ilishlarda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar vakillarining davlat statistikasi masalalari bo'yicha axborotlari eshutilishi mumkin. Statistika kengashining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

0.1.3 Alohida muxbirlarning ma'lumotlari maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari yakka tartibdagi statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, davlat sirlari va yuridik shaxslarning tijorat sirlariga rioya etilishini, jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning egasi mavhumlashtirilishini ta'minlashga majburdirlar. Bundan tashqari 2017 yil sentyabrda “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizom”ga asosan, (13-band, §15) Davlat statistika qo'mitasi maxfiylik masalalarini hal qilish bo'yicha xavfsizlik choralarini ko'radi, shu jumladan bank sirlarini ham (13-band, §11). Nihoyat, “Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat statistika sohasidagi faoliyatiga aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasining har bir xodimi uni bunday ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi sifat menejmenti va metama'lumotlar boshqaruvini

ta'minlaydigan statistika biznes-jarayonlarini ifodalovchi BMT ning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining (UNECE) Statistika biznes jarayonlar umumiy modelini yuritadi.

Respondentlarga ma'lumot yetkazib berish maqsadida Davlat statistika organlari o'z vakolatlari doirasida moliya, bojxona, soliq organlari, banklar va boshqa idora va xizmatlar, yuridik shaxslar va ularning vakolatxonalari filiallaridan, jismoniy shaxslardan, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan Davlat statistika kuzatuvlarini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rashga va olishga, shuningdek, statistik maqsadlarda foydalaniladigan hisobotlarga tushuntirishlar olishga huquqiga ega.

Bundan tashqari, davlat statistikasi korxonalar va muassasalar statistik ma'lumotlarining ishonchliligini tekshiradi, olingan statistik ma'lumotlarni to'liqligi ob'ektivligini ekspertizadan o'tkazadi va buzilganligi aniqlangan hollarda ularni to'g'rilash uchun zarur ko'rsatmalar beradi va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritadi.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnik, elektron-hisoblash va moliyaviy resurslar (tavsiya etiladigan rukn)

[Kadrovые, materialno-texnicheskiye, elektronno-vychislitelnye i finansovye resursy, imeyuyuyesya dlya suщestvuyuyux statisticheskix programm, a takje trebuyemye dlya zaprogrammirovannyx vychodnyx statisticheskix dannyx.]

Markaziy apparatda baliq ovlash to'g'risidagi axborotlarni shakllantirish ishlari 4 nafar, hududiy statistika boshqarmalarida – 1 nafar, tuman, shahar statistika bo'limlarida 1 nafar xodim tomonidan amalga oshiriladi.

Umuman baliq ovlash to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish uchun qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun xodimlar soni yetarli va xodimlar mos ko'nikmalarni saqlash va rivojlantirish uchun qo'yilgan vazifalarni bajarishga layoqatli. Barcha xodimlar iqtisodiyot va qishloq xo'jaligi sohasida oliy ma'lumotga ega.

Ko'nikmalarni qo'llab quvvatlash va rivojlantirish muntazam ravishda mutaxassislar uchun Kadrlarni qayta tayyorlash va statistik tadqiqotlar markazida taklif etiladigan kurslarda xodimlarni o'qitishga asoslangan,

Boshqarma yetarli miqdordagi kompyuterlarga ega bo'lib, har bir xodim alohida o'zlariga birlashtirib berilgan, lokal tarmoqqa ulangan, muntazam ravishda dasturiy ta'minot yangilanib turadigan kompyuterlarda ishlaydi.

Berilayotgan moliyaviy manbalar qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha davlat statistika ishlari dasturida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun yetarli.

1. Yaxlitlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari aniqlik, xolislik va beg'arazlikdir. Bundan tashqari, “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomi”da (13-modda, §6) Davlat statistika qo'mitasining prinsiplari beg'arazlikni ta'minlashi belgilanga.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika ma'lumotlaridan davlat manfaatlarini ko'zlab va ilmiy maqsadlarda, jamoatchilikni xabardor etish, bunday ma'lumotlardan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun foydalaniladi. Davlat statistikasi organlari yuridik shaxslardan, ularning vakolatxonalari va filiallaridan, jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan olgan birlamchi statistika ma'lumotlari faqat jamlanma statistika ko'rsatkichlarini tayyorlashda statistika maqsadlarida ishlatiladi hamda jamlanma holatda va egasi mavhumlashtirilgan tarzda e'lon qilinadi. Tarkibida davlat siri va tijorat sirlari bo'lgan statistika ma'lumotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish nizomi va tartibini oshkor qilish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 4-moddasiga binoan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkoralikdir. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun va qarorlarda keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, “Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonun (2002 yil) va Qo'mitaning 368-sonli qarori veb-saytga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida ham chop etiladi va normativ-huquqiy xujjatlar bazasiga (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.Lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlarga e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Hukumat Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlarini e'lon qilinish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda Davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 5-moddasi). Faqat qo'mita Raisi statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistik ma'lumotlarni belgilash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Jamiyatga e'lon qilinayotgan ma'lumotlar ma'lumot ishlab chiqaruvchi agentlik tomonidan aniq belgilanadi (logotip va izohlar).

1.2.4 Uslubiyatlar, dastlabki ma'lumotlar va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida avvaldan xabar berish.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga jiddiy o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamaotchilikni oldindan ogohlantiradi. Davlat statistika qo'mitasi o'z veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloqi bo'yicha ko'rmatma

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimiga tayinlanayotganda majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi uni bunday ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konsepsiya va ta'riflar

2.1.1 Konsepsiya va ta'riflar (talab etiladigan rukn)

[Stepen, v kotoroy obuyaya struktura konsepsiy i opredeleniy otvechayet mejdunarodno priznannym standartam, rekomendatsiyam ili luchshim dostijeniyam praktiki.]

Mazkur axborotlar ovlangan baliqlar hajmi monitoringini va hisobini yuritish maqsadida shakllantiriladi.

Baliq ovlash hajmini aniqlash uchun 1-FX shakli (yilda 2 marta va yillik) «Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot», 1-DX shakli (yilda 2 marta) «Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari faoliyati to'g'risida hisobot», 1-QX shakli (choraklik va yillik) «Qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot», 1-KB shakliga ilova (QX) (yillik) «Mikrofirma va kichik korxonaning qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot» davlat statistika hisobotlari statistik axborotlardan foydalaniladi.

Baliqchilik mahsuloti ovlangan baliq mahsulotlari miqdori bilan aniqlanadi.

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov (talab etiladigan rukn)

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

[Statisticheskij oxvat dannyx.]

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston tRespublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini o'z ichiga oladi.

Xo'jaliklar qamrovi: fermer, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, yirik, kichik korxonalar va mikrofirmalar.

Ovlangan baliq turlari bo'yicha qamrov: qishloq xo'jaligi bo'yicha davlat statistika hisobotlarida keltirilgan.



2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

[Isklyucheniya iz statisticheskogo oxvata.]

Istisno yo‘q

2.2.1.3 Hisobga olinmagan faoliyat


[Neuchtennaya deyatelnost.]

Yashirin iqtisodiyot hisobga olinmaydi.

2.3 Tasniflash/sektorlar bo‘yicha bo‘lish

2.3.1 Tasniflash/sektorlar bo‘yicha bo‘lish (ma‘lumotlar rukniga aloqador sifatidagi talab etiladigan rukn.)

[Sootvetstviye v tselom ispolzuyemyx sistem klassifikatsii/razbivki po sektoram mejdunarodno priznannym standartam, rekomendatsiyam ili luchshim dostijeniyam praktiki.]



2.4 Hisoblash asosi

2.4.1 Baholash (ma‘lumotlar rukniga aloqador sifatidagi talab etiladigan rukn.)

[Vidy tsen (rynochnye, istoricheskiye, administrativnye, bazovye, zakupochnye, proizvoditeley i t.d.), ispolzuyemye dlya otsenki potokov i zapasov.]

Ovlangan baliq to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar tomonidan topshiriladigan davlat statistika hisobotlariga va tanlanma kuzatuv ma‘lumotlariga asosan shakllantiriladi.

2.4.2 Hisoblash asoslari (ma‘lumotlar rukniga aloqador sifatidagi talab etiladigan rukn.)

[Stepen, v kotoroy uchet otvechayet trebovaniyam k uchetu na osnove principa nachisleniya.]

Ovlangan baliq to'g'risida ma'lumotlar davlat statistika organlariga yuridik shaxslar, mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan topshiriladigan statistik kuzatuvlar ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartibi (tavsiya etilgan rukn)

[Sootvetstviye v tselom protsedur ischisleniya valovyx/chistyx pokazateley mejdunarodno priznannym standartam, rekomendatsiyam ili luchshim dostijeniyam praktiki.]

3. Aniqlilik va ishonchlilik

3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar

3.1.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni to'plash dasturi (talab etiladigan rukn)

[Komplektnost isxodnyx dannyx, poluchennyx s pomoyu administrativnyx programm sbora dannyx i programm sbora dannyx posredstvom obsledovaniy, i sootvetstviye sposoba sbora dannyx usloviyam strany.]

Baliq ovlash to'g'risidagi ma'lumotlarning shakllantirilishi uchun axborotlar manbai qishloq xo'jaligi bo'yicha mos birlamchi davlat statistika hisobotlari ma'lumotlari hisoblanadi.

- baliq ovlash hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar fermer, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, yirik, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun davlat statistika hisoboti asosida xar chorakda va yilda bir marta shakllantiriladi.

3.1.2 Ta'rif, statistik qamrov, tasniflagich, baholash va boshlang'ich ma'lumotlar hisobining aniq davri (tavsiya etiladigan rukn)

[Stepen, v kotoroy isxodnye dannyie priblijayutsya k trebuyemyim parametram v otnoshenii opredeleniy, statisticheskogo oxvata, klassifikatsii, otsenki i momenta ucheta (kak ukazano v punktax 2.1.1-2.4.3).]

Baliq ovlash hajmi to'g'risidagi statistik axborotlar fermer xo'jaliklari, mahalla fuqarolar yig'inlari, yirik, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan davlat statistikasi organlariga taqdim etiladi.

3.1.3 Boshlang'ich ma'lumotlarning tayyorlanish muddatlari (tavsiya etilgan rukn)

[Svoyevremennost isxodnyx dannyx otnositelno trebovaniy, svyazannyx s podgotovkooy vyxodnyx statisticheskix dannyx, svoeyvremennost kotoryx otvchayet sootvetstviyuuyim standartam dannyx (trebovaniyam SSRD ili rekomendatsiyam OSRD).]

Axborotlarni tayyorlash qat'iy ravishda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Choraklik ma'lumotlar 20 kundan, yillik ma'lumotlar 4 oydan ko'p bo'lmagan hisobot davridan keyin qayta ishlanadi.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan rukn)


[Sistematischeckaya otsenka isxodnykh dannyx — v tom chisle dannyx sploshnyx i vyborochnyx statisticheskix obsledovaniy i administrativnogo ucheta (naprimer, na polnotu statisticheskogo oxvata, oshibki vyiborki, oshibki respondentov i oshibki registratsii); otslejjivayutsya li rezultaty takix otsenok; kak ispolzuyutsya rezultaty dlya napravleniya statisticheskogo protsesssa.]

Sub'ektlardan olingan ma'lumotlar nafaqat hududiy statistika boshqarmalari darajasida, balki davlat statistika qo'mitasida muqarrar nazorat va tekshiruvlardan o'tadi. Axborotlarda xatoliklar aniqlangan hollarda albatta sub'ektlar bilan aniqlik kiritiladi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar (ma'lumotlar rukniga aloqador rukn sifatidagi talab etiladigan rukn.)

[Statisticheskiye metody, primenyayemye pri sostavlenii dannyx dlya raboty s istochnikami dannyx (naprimer, dlya ix soglasovaniya s tselevymi konsepsiyami v punkte 2.1.1).]



3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar (ma'lumotlar rukniga aloqador rukn sifatidagi talab etiladigan rukn.)

[Statisticheskiye metody, ispolzuyemye v drugix statisticheskix protsedurax (naprimer, korrektyrovke i preobrazovaniy dannyx i statisticheskoy analize).]

Ma'lumotlarga tuzatish kiritish va qayta ishlash asoslangan usullar yordamida amalga oshiriladi. Yakuniy ma'lumotlarni shakllantirishdan oldin dastlabki ma'lumotlarga tuzatishlar kiritiladi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash (tavsiya etiladigan rukn)

[Otsenka i izucheniye statisticheskix rasxojdeniy v promejutochnyx dannyx.]

Baliq ovlash to'g'risidagi ma'lumotlar choraklik asosda oraliq ma'lumotlar bilan solishtiriladi.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan rukn)

[Otsenka i izucheniye statisticheskix rasxojdeniy v promejutochnyx dannyx.]

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi farqlar va boshqa muammolarni baholash. (tavsiya etiladigan rukn)

[Izucheniye statisticheskix rasxojdeniy i drugix potentsialnyx pokazateley nalichiya problem v vyhodnyx statisticheskix dannyx.]

Chiquvchi statistik ma'lumotlardagi farqlar o'rganiladi, hisobot davridagi ma'lumotlarni o'tgan yil natijalari bilan solishtiriladi, jiddiy farqlar sabablari aniqlanadi va tahlil qilinadi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish (tavsiya etiladigan rukn)

[Periodichnost, s kotoroy provoditsya izucheniye i analiz peresmotrev dannyx; kakim obrazom ix rezultaty uchityvayutsya vo vnutrenney statisticheskoy rabote (sm. takje punkt 4.3.3).]

Choraklik va yillik hisobot ma'lumotlari qayta ishlanadi, tahlil qilinadi, umumlashtiriladi, zarur hollarda sub'ektlar bilan aniqlik kiritiladi va choraklik ma'lumotlar 20 kundan hamda yillik ma'lumotlar - 4 oydan ko'p bo'lmagan hisobot davridan keyin rasmiy ravishda chop etiladi.

4. Amaliy ahamiyati

4.1 Davriylik va muddatlilik

4.1.1 Davriylik (kerakli rukn)

[Sootvetstviye periodichnosti vyhodnyx statisticheskix dannyx primenimym standartam rasprostraneniya dannyx (trebovaniya OSRD ili rekomendatsii GDDS).]

Ovlangan baliqlar to'g'risidagi ma'lumotlar har chorakda va yilda bir marta shakllantiriladi.

4.1.2 Muddatlilik (kerakli rukn)

[Sootvetstviye svoeyevremennosti vyhodnykh statisticheskix dannyx primenimym standartam rasprostraneniya dannyx (trebovaniya OSRD ili rekomendatsii GDDS).]

Baliq ovlash to'g'risidagi choraklik ma'lumotlar davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda, hisobot davridan keyingi 20 kundan ko'p bo'lmagan davrda hamda yillik ma'lumotlar - hisobot davridan keyingi 4 oydan kechiktirmasdan chop etiladi.

4.2 Taqqoslash

4.2.1 Ichki taqqoslash (ma'lumotlar rukniga aloqador kerakli rukn)

[Sopostavimost statisticheskix dannyx v predelax nabora dannyx.]

Statistik ma'lumotlar ichki kelishilishi, vaqt bilan taqqoslanilishi bilan tavsiflanadi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha taqqoslanishi (tavsiya etilgan rukn)

[Sopostavimost ili vozmojnost soglasovaniya statisticheskix dannyx za razumnyy period vremeni.]

Yetarli davrlar uchun ma'lumotlarning vaqt bilan qiyosiy davriy qatorlari mavjud. Baliq ovlash to'g'risidagi dinamika 1991 yildan boshlab shakllantiriladi.

4.2.3 Sektor yoki sohalar o'rtasida taqqoslash (tavsiya etilgan rukn)

[Sopostavimost ili vozmojnost soglasovaniya statisticheskix dannyx so statisticheskimi dannymi, poluchennymi iz drugix istochnikov dannyx i/ili statisticheskix sistem.]

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish grafigi (kerakli rukn)

[Naskolko peresmotry dannyx provodyatsya soglasno otkrytomu i regulyarnomu grafiku.]

Baliq ovlash to'g'risidagi statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va chop etish davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

4.3.2 Dastlabki yoki qayta ko'rib chiqiladigan ma'lumotlarni belgilash (kerakli rukn)

[Oboznachenije predvaritel'nyx i/ili peresmotrennyx dannyx v kachestve takovyx.]

Ma'lumotlar taqdim etilishi vaqtida foydalanuvchilarga ma'lumotlarning dastlabki ekanligi ma'lum qilinadi.

Dastlabki ma'lumotlar nashr etilayotganda tegishli izohlar yoziladi.

4.3.3 Qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish natijalarini e'lon qilish (tavsiya etilayotgan rukn)

[Rasprostraneniye rezultatov izucheniya i analiza peresmotrov dannyx (sm. takje punkt 3.5.1).]

Ko'rilayotgan ma'lumotlarning o'tgan davrlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganligi tahlil qilinadi, bu esa ma'lumotlarning ishonchliligini baholash imkonini beradi.

Ovlangan baliqlar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar statistik jadval, yakuniy ma'lumotlar statistik byulleten, jadval va to'plamlar ko'rinishida tarqatiladi.

5. Ma'lumotlarni olishning qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni tarqatish shakllari (kerakli rukn)

[Statisticheskiye dannye predstavlyayutsya v forme, sposobstvuyuyey ix pravilnoy interpretatsii i poleznym sopostavleniyam (komponovka i yasnost teksta, tablits i grafikov).]

Baliq ovlash to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar statistik jadval, yakuniy ma'lumotlar statistik byulleten, press-reviz ko'rinishida foydalanuvchilarga tarqatiladi, hamda veb-saytga qo'yiladi.

5.1.2 Ma'lumotlarni e'lon qilishning vositalari va shakli (kerakli rukn)

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

[V pechatnoy forme - Novye vypuski.]

Statistik ma'lumotlar chop etilgan shaklda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining nashrlari orqali tarqatiladi:

Bundan tashqari, statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarning so'roviga ko'ra taqdim etiladi.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Haftalik byulletenlar

[V pechatnoy forme - Yejenedelnye byulleteni.]

Mavjud emas

5.1.2.3 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

[V pechatnoy forme - Yejemesyachnye byulleteni.]

5.1.2.4 Bosma shaklda – Choraklik byulletenlar

[V pechatnoy forme - Yejekvartalnye byulleteni.]

Faqat statistik jadval ko‘rinishida mavjud.

5.1.2.5 Bosma shaklda - Boshqalar

[V pechatnoy forme - Drugiye.]

Jadvallar, foydalanuvchilarning so‘rovlariga asosan

5.1.2.6 Elektron shaklda - Onlayn byulleten yoki boshqalar

[V elektronnoy forme - Onlayn byulleteni ili dannye.]

Baliq ovlash to‘g‘risidagi ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 apreldagi PQ-4273-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi ochiq axborotlar portaliga joylashtirilgan.

5.1.2.7 Elektron shaklda - Boshqalar

[V elektronnoy forme - Drugiye.]

Ma'lumotlar har chorakda elektron statistik jadvallar ko'rinishida, har yili byulleten va to'plamlar ko'rinishida davlat boshqaruvi organlari va boshqa foydalanuvchilarga taqdim etiladi, shuningdek veb-saytda press-reliz ko'rinishida joylashtiriladi.

5.1.5 So'rov asosida ma'lumotlarni tarqatish (tavsiya etilgan rukn)

[Rasprostraneniye po zaprosu nepublikuyemyx, no nekonfidentsialnyx statisticheskix dannyx.]

O'zbekiston Respublikasi «Davlat statistikasi to'g'risida»gi Qonunga, «O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida»gi Nizomga, statistik ma'lumotlarni tayyorlash va taqdim etish ishlarini tashkil etish Reglamentiga va boshqa me'yoriy hujjatlarga statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarning so'roviga asosan belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Statistik axborotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslarning yozma murojaatlariga asosan taqdim etish yo'li bilan chop etilgan yoki elektron jadvallar, statistik to'plamlar, byulletenlar, ekspress-axborotlar ko'rinishida, hamda tomonlarning axborot almashinuv to'g'risidagi kelishuviga asosan taqdim etiladi.

5.2 Metama'lumotlar

5.2.1 Konsepsiya, statistik qamrov, tasniflash, hisob asosi, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar haqida hujjatlarni tarqatish (kerakli rukn)

[Rasprostraneniye dokumentatsii o konsepsiyax, statisticheskox oxvate, klassifikatsiyax, osnove ucheta, istochnikax dannyx i statisticheskix metodax, vklyuchaya annotatsii po otkloneniyam ot mejdunarodno priznannyx standartov, rekomendatsiy.]

Bitimlar, statistik qamrov, tasniflar, hisoblar asoslari, ma'lumotlar manbai va statistik usullar to'g'risidagi ma'lumotlar statistik to'plamlarda asosiy ko'rsatkichlarga uslubiy tushuntirish ko'rinishida aks ettiriladi.

9. Kelgusidagi rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

[Plany usovershenstvovaniy - Posledniye usovershenstvovaniya.]

Qishloq xo'jaligi bo'yicha davlat statistika kuzatuvlari shakllari takomillashtirildi.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

[Plany usovershenstvovaniy - Kratkosrochnyye.]

Qishloq xo'jaligi bo'yicha davlat statistika kuzatuvlari shakllarini takomillashtirish.

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O’rta muddatli

[Plani usovershenstvovaniy - Srednesrochnye.]

Baliq ovlash bo’yicha axborotlarni tayyorlash va O’zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portaliga joylashtirish.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko‘makka talab – Qisqa muddatli

[Plani usovershenstvovaniy - Potrebnosti v TP/finansirovaniy - Kratkosrochnye.]

Moliyalashtirish davlat statistika ishlari dasturi doirasida ta’minlangan.

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko‘makka talab – O’rta muddatli

[Plani usovershenstvovaniy - Potrebnosti v TP/finansirovaniy - Srednesrochnye.]

Moliyalashtirish davlat statistika ishlari dasturi doirasida ta’minlangan.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

Aloqa bog'lash uchun shaxs 1

F.I.O.: G'ulomov Shovkat
Lavozim: Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi boshlig'i
Bo'linma: Qishloq xo'jaligi va ekologiya
Bo'lim:
Departament: Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi
Idora: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Manzil (1 satr):
Manzil (2 satr):
Shahar/region: Toshkent shahri
Mamlakat: O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:
Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam 998 71 230-80-51
Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam 998 71 230-81-12
Elektron manzil: selhoz@stat.uz

Aloqa bog'lash uchun shaxs 2

F.I.O.: A'zamov Azim
Lavozim: Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari
Bo'linma: Qishloq xo'jaligi va ekologiya
Bo'lim: Qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlar bo'yicha yig'ma tahliliy axborotlarni shakllantirish bo'limi
Departament: Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi
Idora: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Manzil (1 satr):
Manzil (2 satr):
Shahar/region: Toshkent shahri
Mamlakat: O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:
Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam 998 71 230-80-53
Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam 998 71 230-80-54
Elektron manzil: selhoz@stat.uz

Aloqa bog'lash uchun shaxs 3

F.I.O.:
Lavozim:
Bo'linma:
Bo'lim:
Departament:

Idora:

Manzil (1 satr):

Manzil (2 satr):

Shahar/region:

Mamlakat:

Pochta indeksi:

Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam

[Vernutsya v nachalo dokumenta](#)